

**O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi**

***Matbuot kotibi Sobirova Nodirabegim***

*“Tailand qirollik libosi”*

2023 yil 16-20 oktabr kunlari o‘tkazilgan IV Toshkent xalqaro amaliy san’at biennialisi doirasida Tailand ipakchilik san’ati delegatsiyasi tashrifi amalga oshirildi. Tashrif davomida O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida Tailand qirolligi Ipakchilik departamenti rasmiy vakili, Tailand ipagi elchisi Tanyaluk Promma hamkorligida “Tailand qirollik libosi” nomli ko‘rgazmasini tashkil etildi hamda 2023 yil 18-oktyabr kuni ko‘rgazmaning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.



“Tailand qirollik libosi” nomli ko‘rgazmasida Tailand qirolligining to‘qqiz xil ayollar liboslari namoyish etildi. Shu bilan birga, ko‘rgazmada Qirollik libosiga bag‘ishlab chop etilgan kitoblar ham namoyish etildi.

Ko‘rgazma ochilishidan so‘ng sakkiz turdagi liboslar Tailand urf odatlari va an‘analarini targ‘ib qilish hamda muzey zahirahonasini boyitish maqsadida amaliy san‘at muzeyiga beg‘araz sovg‘a qilindi.

Ko‘rgazmadan joy olgan “9 turdagi Tailand qirollik libosi” kelib chiqish tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak: Qirol Phumibol Adulyadet hamrohligida qirolicha Sirikit Amerika va Yevropaning 15 ta davlatiga tashrif buyurdi. 1960 yilda Qirolicha Qirollik kundalik hayotida an‘anaviy Tailand liboslari G‘arb madaniy ta’siriga singib ketganini va deyarli butunlay G‘arbga aylanganini payqadi.

Qirolicha oliyalari butun dunyoda mashhur bo'lgan ba'zi mamlakatlarning liboslari, masalan, hind sari yoki yapon kimonosini kabi milliy liboslar yo'qligini tushundi. Qirolicha oliy hazratlari uchun kostyum aniq naqshga ega bo'lishi va eng muhimi, Tailand o'ziga xosligini ifodalashi kerak degan fikrga ega bo'ldi va u bu imkoniyatdan Tailand matolarida foydalanadi. Qirolicha aniq Tailand o'ziga xosligini aks ettiruvchi aksessuarlardan foydalanib, qadimgi ayollar kiyimidan andoza olib "Tailand qirollik libosi"ni yaratdi.

Qirol va qirolicha Yevropa va Amerikaga rasmiy tashriflaridan so'ng Tailand o'ziga xosligini ifodalovchi Tailand dizaynidagi kiyim uslubini ishlab chiqishga qaror qildi. Qirolicha qirollik oilasiga amaldagi, moslashuvchan va zamonaviy hayotga mos keladigan Tailand ayollar kiyimlarini o'rganish va tadqiq etish vazifasi topshirildi, natijada Tailand qirollik liboslari yaratildi va quyidagi nomlari berildi: *Chut Thai Chakkraphat, Chut Thai Chakkri, Chut Thai Dusit, Chut Thai Boromphiman, Chut Thai Amarin, Chut Thai Siwalai, Chut Thai Chitlada, Chut Thai Ruean-Ton.*

O'zbekiston Respublikasi Madaniy Meros agentligining 2024 yil 7 yanvardagi 11-P-sonli buyrug'iga muvofiq O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyiga tegishli Tailand qirolichasi kolleksiyasiga oid noyob liboslar namunalari ishtirokida "Qoraqalpog'iston Respublikasi tarix va madaniyati davlat muzeyi", Ichan-qal'a, "Buxoro" davlat muzey-qo'riqxonalarida "Ayollar ipak liboslari: tarix va zamonaviylik" ko'rgazmasi tashkil etildi.



O‘zbekiston Respublikasining turli viloyatlarida o‘tkazilgan "Ayollar ipak liboslari: tarix va zamonaviylik" ko‘rgazmasida 8 turdagi Tailand qirolchasi kolleksiyasiga oid noyob liboslar namunalari bilan birga o‘sh hududga tegishli bo‘lgan ayollar milliy liboslari ham namoishga qo‘yildi. Masalan: "Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarix va madaniyati davlat muzeyi" XIX-XX asr o‘zbek qoraqalpoq milliy liboslari ham joy olgan bo‘lib, o‘lar aq jegde, qizil kiymeshek, qizil jegde, pashshayi shapan, aydinli shapanlar. Mazkur milliy kiyimlarni ayollar bayramlarda kiygan.

-Xorazm viloyati "Ichan-qal'a" davlat muzeyi qo‘riqxonasidagi ko‘rgazmada XX asr Xorazm milliy liboslari ham joy olgan bo‘lib, ular Yelak, Ayollar kuylagi, Papakli tahya, Turma belbog‘, Kelin nikoh kuylagi, Paranja, Sochoqli tahya, Erkaklar chakmonlari. Mazkur milliy kiyimlarni yosh toifasiga qarab ko‘cha kuyda va bayram tomoshalarda kiyishgan. Ular bichimi, naqishinkoriligi, kiyish qoidalari va turlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi.

Har bir millatning o'ziga xos madaniyati, an'analari mavjud. Ikki mintaqaning ipak matosiga qaratilgan qadriyatlar, hunarmandlar tomonidan to'qilish sirlarini avloddan avlodga me'ros tarzda o'rgatib kelinishi jihatidan juda ko'p o'xshash taraflari mavjudligi Tailand va O'zbek milliy liboslarida o'z aksini topgan. Muzeylar va ularning faoliyati millatlar o'rtasidagi ma'naviy tanishuvni ta'minlaydi. Mana shunday do'stona aloqalar millatlararo totuvlikga zamin yaratadi.

Ushbu birinchi xalqaro o'zbek-tailand ko'rgazmasi ikki millatning kiyinish madaniyatiga mansub ayollar liboslari ipak matosidan yaratilgan kamalakning barcha yorqin, jilvador ranglari tashrif buyuruvchilarga, yoshlarga Tailand xalqining qadimiy madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini berdi desak adashmagan bo'lamiz.